

**G‘AZZOLIYNING FALSAFIY-AXLOQIY QARASHLARINING BUGUNGI
KUNDAGI AHAMIYATI**

Ramatov J.S.

Toshkent davlat transport universiteti

“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri

Eldor Tuxtaboyev

Toshkent davlat transport universiteti

“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Imom G‘azzoliy ijodini falsafiy jihatlarini tadqiq etish nafaqat hozirda balki, istiqbolda shu sohadagi olib borilishi lozim bo‘lgan ilmiy izlanishlarni samarali davom ettirishda muhim ahamiyatga ega. G‘azzoliyning falsafiy qarashlari uning barcha asarlarida ifodalangan. Jumladan uning “Faylasuflar ixtiyoqlari”, “Tahofut ul-falosifa” (“Faylasuflarni rad etish”), “Kimyoi saodat” (“Saodat kimyosi”), “Ixyo ulum ad-din” (“Diniy ilmlarni tiriltirish”), “Mukoshafat ul qulub” kabi asarlarida falsafiy masalalar islom ilohiyoti nuqtai-nazaridan ma’lum bir tizimga solingan. G‘azzoliyning falsafiy qarashlari asosan an’anaviy sun’iylik va so‘fiylik ideallari bilan uyg‘unlashtirilgan holda ta’rif va tasnif etilgan.

Kalit so’zlar: G‘azzoliyning falsafiy qarashlari, G‘azzoliyning “Bosit, kasbiy mahorat, “Vojiz”, ekstremal kasbiy kompitentlik

KIRISH. Imom G‘azzoliy ijodini falsafiy jihatlarini tadqiq etish nafaqat hozirda balki, istiqbolda shu sohadagi olib borilishi lozim bo‘lgan ilmiy izlanishlarni samarali davom ettirishda muhim ahamiyatga ega. G‘azzoliyning falsafiy qarashlari uning barcha asarlarida ifodalangan. Jumladan uning “Faylasuflar ixtiyoqlari”, “Tahofut ul-falosifa” (“Faylasuflarni rad etish”), “Kimyoi saodat” (“Saodat kimyosi”), “Ixyo ulum ad-din” (“Diniy ilmlarni tiriltirish”), “Mukoshafat ul qulub” kabi asarlarida falsafiy masalalar islom ilohiyoti nuqtai-nazaridan ma’lum bir tizimga solingan. G‘azzoliyning falsafiy qarashlari asosan an’anaviy sun’iylik va so‘fiylik ideallari bilan uyg‘unlashtirilgan holda ta’rif va tasnif etilgan.

Abu Hamid Muhammad ibn Muhammad G‘azzoliy 1111 yilda vafot etadi. G‘azzoliy bor- yo‘g‘i 53 yil umr ko‘rdi. Ammo shu umri davomida yuzga yaqin asar yozib qoldirdi. Bu asarlar tafsir, hadis, tarix, falsafa, fiqh, tasavvuf olimlari uchungina emas, ilm o‘rganishni istagan barcha insonlar uchun ham qimmatlidir . G‘azzoliyning “Bosit”, “Vojiz”, “Vosit”, kabi asarlari faqihlar; “Qavoid al-Aqoid”, “Ar risolat al-Qudsiya”, “Al-Iqtisod fi'l-E’tiqod” singari kitoblaridan tafsirchilar, kalom ilmining olimlari; “Ihyo ulum ad-din”, “Kimiyoi saodat”, “Mukoshafat ul-qulub”

nomli buyuk asarlaridan tasavvuf muxlislari bahramand bo‘ldilar. Olimning “At-tibr al-masbuk fi nasihat ul-mulk” (“Sultonlarga nasihat”) asarida davlat hukmdori, uning xislatlari, fazilatlari, zimmasida yotgan majburiyatlar batafsil bayon qiliniadi. Asarda ijtimoiy munosabatlar tartibi, hokim va fuqaro munosabatlari batafsil tushuntirib beriladi.

Imom G‘azzoliy mantiqqa oid asarlar ham yozgan. Olim hayoti davomida ikki marta o‘zi haqida shubhaga borgan. Birinchisida, o‘rgangan ilmlarining hammasida kamchiliklar ko‘p bo‘lsa kerak, deb shubhaga boradi va o‘zicha mutlaq haqiqatni izlay boshlaydi. U oldiniga haqiqat tuyg‘ularda deb biladi, ammo tez orada tuyg‘ular aldashi mumkinligiga ishonch xosil qiladi. So‘ngra aniq bilimlar haq, degan xulosaga keladi va “balki aql ham aldar”, deb ikkilanadi. Pirovardida, Allohning hidoyati - qalbga yorug‘lik beruvchi ilmlar kabi, aniq ilmlar ham haqiqat ekanligiga ishonch hosil qiladi. G‘azzoliyning ikkinchi ruhiy iztirobi 38 yoshida yuz beradi. Bir kuni u: "Qilayotgan barcha ishlarim shon-shuhrat, amal-mansab, nufuz va mol-dunyo uchun emasmi?" - degan shubhaga tushib, tinchini yo‘qotadi. Shu bois u, mudarrislikdan voz kechib, faqirona hayot kechirishga o‘tadi. Yeyish-ichishni ham keskin kamaytirib, jismonan zaiflashadi. Haqiqat faqat mutasavviflarning kamtarona yashash tarzida bo‘lishi mumkin, degan xulosaga kelib, umrining oxiriga qadar ko‘zga tashlanmay yashaydi. Alloma tasavvufni islom ilmlarining tarkibiy qismi sifatida chuqur o‘rganib, tariqatni odamning axloqini poklovchi va halok etuvchi xislatlardan qutqaruvchi yo‘l deb ko‘rsatadi.

U har bir ilmni dadillik bilan o‘rgangan. Har bir toifaning aqidasini yaxshilab tafakkuridan o‘tkazgan. Imom G‘azzoliyning yozishicha, ilm ikki xil bo‘ladi. Biri - taqlidiy ilm, ya’ni o‘tmishdan meros qolgan, ota-onha va ustozlardan olinadigan bilimlar. Ikkinchisi - kashf etilgan ilm. Taqlidiy ilm ko‘r-ko‘rona ergashish bilan bo‘ladi, kashf etilgan ilm esa har bir shaxsning qobiliyati, shuuriy izlanishi orqali qo‘lga kiritiladi. Hayotda juda ko‘p odamlar taqlidiy bilimlar bilan qanoatlanadilar. Chunki yangilik yaratmay, tayyor hunarlar, ilmlarni o‘rganib, ko‘p qatori yashash oson. Ammo taraqqiyot uchun, insoniyat tafakkurini olg‘a siljitish uchun ilohiy va dunyoviy haqiqatlarni, mohiyatlarni izlash, kashf ztish zarur. Bu ayrim buyuk shaxslarning nasibasi. Shunday buyuk shaxslardan biri bo‘lgan Imom Abuhomid G‘azzoliy Haqiqat tolibi bo‘lib, avval kalom nlmini, so‘ngra falsafani, keyin ismoiliya ta’limotini va oxiri tasavvufni o‘rganishga kirishgan. U ilmi kalom haqida, falsafa va ismoiliya haqida bir nechta kitob yozadi. Olim shunday xulosaga keladiki, ilmi kalom ham, falsafa va ismoiliya ham ilohiy haqiqatlarni yangilatishga qodir emas. Mana uning xulosalari:

«Mutakallimlar o‘z aqidalarini chuqurlashtirish uchun javhar va araz (falsafa tushunchalari) masalalarida babs boshladilar va falsafaga qo‘l urdilar. Lekin ular

ilmning maqsadi boshqa bo‘lgani sababli ularning so‘zi nishonga yetmadi va odamlar orasidagi shak-shubhalarni bartaraf qilolmadilar» [1, 243].

«Ikki yil ichida faylasuflar ilmini egalladim. Yana bir yil tafakkurga berildim. Ularning kitoblarini takroran o‘qir edim. Ularning xato va adashishlarini angladim, raddiga yo‘l topdim va bildimki (falsafa) ipson kamoli uchun yetarli emas» [2, 51].

«Ta’limiylardan (ismoiliya ahli) bir kishini uchratdim. . . ularning kitoblarini topib o‘qidim, so‘zlarini ko‘rdim. Ularning fasohatolarini dalillar bilan isbotladim. Xulosa shuki, ularda ham ishga yaraydigan va foyda beradigan so‘z topolmadim» [2]. Shundan keyin G‘azzoliy tasavvuf va tariqatga yuzlanadi. U yozadi: «Haqiqat yuzasidap angladimki, bu jamoat, (ya’ni so‘fiylar) ahvol egalaridirlar, so‘z ahli emaslar. Bu ilmni tahsil bilan imkon qadar o‘rgandim, ammo qolgan kimsalarni dars tafsili va suhbat bilan egallab bo‘lmashdi, balki bu zavq va sulukni talab qilardi. Menga shu narsa ayon bo‘ldiki, tariqatning asosi tarki nafs, tarki aloiq ekan, uqboga ko‘ngil bog‘lash. butun himmat bilan Xudo sari yuzlanish ekan. O‘z holimga qaradim va ko‘rdimki, taalluqlarga g‘arq, dunyo tashvishiga ko‘milgan ekanman» [2, 51]. Shundan keyin G‘azzoliy qalbida o‘tli g‘alayonlar boshlangani, shariat ilmi va falsafadan, darsu ta’limlardan soviganligini yozadi. «Xudo og‘zimga qulf urdi va dars aytolmadim, deydi u, ovqat tomog‘imdan o‘tmadi, quvvatim susayib borardi». Tabiblar uni ko‘rib, ruhiy muolajaga muhtoj ekanini aytadilar. G‘azzoliy safarga chiqib o‘n yil shaharma-shahar yuradi. «Va bu xil vaqtarda menga shunday narsalar namoyey bo‘ldiki, deb ta’kidlaydi ulug‘ olim, aytib ado qilolmayman. Aniq bildimki, so‘fiylar Xudoy taolo yo‘lining oshiqu soliklari ekan va ularning siyratlari siyratlarning eng yaxshisi va ularning yo‘li eng to‘g‘ri yo‘l va axloqlari eng pokiza axloqdir. Shu darajadaki, agar din asrorining barcha oqilu donishmandlarini bir birlariga qo‘shtalar va xulqu atvorlari, siyratlarini o‘zgartirsalar va yaxshilansalar ham bu dargohga yo‘l topmaslar. Chunki so‘fiylarning jamiki harakat va so‘zlar zohiru botinda Payg‘ambarning charog‘donidan nur olgandir. Barcha mukoshifa va mushohada Payg‘ambar nuridan boshlanadi» [2, 51].

Shunday qilib, respublikamizda mustaqillik sharofati bilan mumtoz merosimiz, jumladan, diniy Sharq falsafasi va madaniyatini o‘rganishda katta ishlar amalgalashirildi. Eng avvalo buyuk zotlar, ular yashab, ijod qilgan tarixiy shaharlar Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Qarshi, Samarcand, buyuk avliyolar, olim-fuzalolariing yotgan joylari obod qilindi. Buyuk faylasuflar bo‘lgan Beruniy, Ibn Sino, ibn Rushd, Farobi, Imom G‘azzoliy, Al – Xorazmiy va ko‘plab olim – u fuzalolarimizning ilmiy asarlari tarjima qilinib o‘rganildi. Sharq qo‘lyozmalari va ularning tarjimasi, falsafiy tahliliga alohida e’tibor qaratilib, Yurtboshimiz tomonidan Sharq falsafiy qo‘lyozmalarini o‘rganishning huquqiy asoslari ham yaratildi.

Butun ma’naviyat tarixi shuni ko‘rsatadiki, sivilizatsiya degani - bu insoining o‘z-o‘zini anglashi, o‘zini kamol toptirish uchun olib borgan kurashining hosilasidir.

Barcha dinlar, ta’limotlar, tafakkur daholari inson qobiliyati, ruhiyati va axloqini o‘rganish, insonni tarbiyalab, to‘g‘ri yo‘lga boshlash, noqisliklar va illatlardan xalos etish bilan shugullanib kelgan. Inson nima, insonni nega u shunchalik buyuk aqli bo‘lgani holda, yana tuban ishlarga qo‘l uradi, hayvoniy hirsu nafs domiga tushib o‘zini, jamiyatini xarob etadi, degan savollar Sharq mutafakkirlari qalbini qadimdan bezovta qilib kelgan.

Abu Homid G‘azzoliy “Kimiyoi saodat” asarida: “Inson farishta va hayvon orasidagi maxluhdir. Hayvon rivojlanmaydi, chunki uning kamolot quvvati yo‘q. Farishta ham rivojlanmaydi, chunki uning o‘zi pok ilohiy nurdan iborat. Faqat insondagina rivojlanish, ruhiy kamolot xislati mavjud”, - deya ta’kidlaydi. Xullas, shaxs ijtimoiylashuvi, tarbiyasi, insonni nuqsonlar, gunohlardan qutqarish ulug‘ ajdodlarimizning qayg‘usi bo‘lib kelgan. Ayniqsa, tasavvufda jamiyat islohi uchun inson tarbiyasi, insonni riyozatlar bilan poklash markaziy o‘rin egallab kelgan. Shu asosda ular komil inson konsepsiyasini ishlab chiqqanlar. Bu borada bahs – miunozara qilishda, uning to‘g‘ri yuritilishida ham inson axloqining, uning tarbiyasining o‘rni beqiyos.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси “Таълим тўғрисида” ги Конуни. ЎРҚ-637 23.09.2020
2. Абдурахмонова З.А “Замонавий ўқитувчининг касбий компитенциясини шакллантириш муаммолари” (Конференция материалари тўплами)- 2016
1. Абдурахмонова, З. Ю. (2020). ОСНОВНЫЕ ТРУДНОСТИ В ПРОЦЕССЕ ПЕРЕВОДА ДЛЯ НАУЧНО ТЕХНИЧЕСКОГО ТЕКСТА. In Общественные и гуманитарные науки (pp. 296-297).
2. ABDURAKHMONOVA, Z. THE ROLE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE QUALITY OF THE EDUCATIONAL PROCESS. ЭКОНОМИКА, 12-16.
3. Юулдашева, Д. М., & Абдурахмонова, З. Ю. СПЕЦИФИКА ОБУЧЕНИЯ ПЕРЕВОДУ НА РУССКИЙ ЯЗЫК ФРАНЦУЗСКИХ ТЕРМИНОВ. ББК 80я43, 172.
4. Aripov, N., Kamaletdinov, S., Tokhirov, N., & Abduraxmanova, Z. (2022). Simulation Modeling of Train Traffic Based on GIS Technologies. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 16, 73-82.
5. Абдурахмонова, З. Ю. (2021). ЗАМОНАВИЙ ЎҚИТИШНИНГ МУАММО ВА ЕЧИМЛАРИДА САМАРАЛИ ЁНДОШУВ. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 1189-1193.

6. Абдурахмонова, З. Ю. (2022). ЁШЛАРНИНГ МАЪНАВИЙ ВА МАДАНИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ УСТИВОР ВАЗИФАЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3(10), 491-500.
7. Абдурахмонова, З. Ю. (2022). ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ХОРИЖЙ ТИЛЛАРНИ ЎРГАНИШДА ҚАРАТИЛАЁТГАН ЭЪТИБОР ВА ЎҚИТИШДА ЯНГИЧА МЕТОДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. World scientific research journal, 10(1), 23-31.
8. Раматов, Ж.С., Ҳасанов, М.Н., & Жуманиёзова, Н.С. (2022). ТАЛАБА-ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ДУНЁҚАРАШИНИ ШАКЛАНТИРИШНИНГ САМАРАЛИ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10-2), 866-874.
9. Ramatov, J.S., Umarova, Rozigul , & Khasanov, M.N. (2022). METHOD OF DETERMINATION OF TRANSPORT INTENSITY IN URBAN CONDITIONS. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (6), 931-936.
10. Эрниёзов У., РАМАТОВ Ж ., Тухтабоев Э., Валиев Л., Жуманиёзова Н., & Ҳасанов М. (2022). ШРИ АУРОБИНДО ҚАРАШЛАРИДА ИНСОН ВА УНИНГ МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШ ЗАРУРАТИ . World Scientific Research Journal, 9 (1), 197–202. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2285>
11. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Ҳ., Муратова, Д.А., Ҳасанов, М.Н., & Эрниёзов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУНМОХИЯТИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10), 376-386.
12. Hasanov M., Tuhtaboev E. THE PERFORMANCE OF THE PERFECT MAN IN THE EASTERN RENAISSANCE (ON THE EXAMPLE OF FARABI'S VIEWS) //Innovative Technologica: Methodical Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 1-6.
13. М.Н.Ҳасанов, Д.А.Ҳафизов, Р.Х.Тоиров, & Х.Қ.Болтабоев. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙ ЯШАГАН ДАВРДАГИ ИЛМ-ФАН ВА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ . JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 4(3), 137–140. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/new/article/view/627>
14. Jumaniyoz Ramatov, Rozigul Umarova, Rashid Baratov, Mirshod Khasanov, Siroj Sultonov, & Fayzulla Kushakov (2022). MODERN REQUIREMENTS FOR THE SPIRITUAL IMAGE OF YOUNG PEOPLE AND ITS MANIFESTATION IN PRACTICE. Academic research in educational sciences, 3 (10), 582-586.
15. Ramatov, J.S., & Khasanov, M.N. (2022). SOCIAL ASPECTS OF PROFESSIONAL QUALITY IMPROVEMENT (ON THE EXAMPLE OF THE

RAILWAY SECTOR). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (6), 969-976.

16.Раматов, Ж.С., Валиев, Л.А., & Ҳасанов, М.Н. (2022). XIX АСРДА ҲИНДИСТОНДАГИ ИЖТИМОЙ – ФАЛСАФИЙ ЖАРАЁНЛАР. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (6), 1070-1078.

17. Жўрабоев, Н. Ю., Кушаков, Ф. А., Султанов, С. Ҳ., & Ҳасанов, М. Н. (2022). КОНФУЦИЙЛИК ХУСУСИЯТЛАРИДАН ХИТОЙ ФАЛСАФАСИНИНГ КЕНГАЙИШИ. World scientific research journal, 9(2), 37-42.

18. Ruzigul, U., Nasirjan, J., Dilmurodkhakim, A., Mirshod, H., & Urozboy, E. (2020). Rationale and history of human reflections in the muslim philosophy. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(5), 1453-1458.

19. Раматов, Ж. С., Эрниёзов, У. К., Султанов, С. Ҳ., & Ҳасанов, М. Н. (2022). САНЪАТНИНГ ТАРИХИЙ-ФАЛСАФИЙ АСОСЛАРИНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ АҲАМИЯТИ. World scientific research journal, 9(2), 65-70.

20. Миршод Нўмонович Ҳасанов (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙ ТАЪЛИМОТИ АСОСИДА БАРКАМОЛ ШАХСНИ ШАКЛАНТИРИЛИШ МАСАЛАЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3 (10), 393-398.

21. Насиба Шарифовна Юнусова, & Муслимахон Яхяева (2022). МОЛОДЕЖЬ И ИНФОРМАЦИОННАЯ СРЕДА. Academic research in educational sciences, 3 (10), 372-376.

22.Н. Ш. Юнусова (2022). ЁШ МУТАХАССИСЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 339-341.

23. Юнусова Насиба Шарифовна, Назарова Нилуфар Жўраевна, & Жуманиязова Насиба Сапарбоевна (2022). ПЕДАГОГЛАРДА КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ (ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ МИСОЛИДА). Современное образование (Узбекистан), (6 (115)), 9-16. doi: 10.34920/SO/VOL_2022_ISSUE_6_2

24. 1.Абдурашидова, Нилуфар Абдурашидовна, & Ҳасанов, М. (2022). ЁШЛАР ДУНЁҚАРАШИДА ДИН ВА АҲЛОҚНИНГ ЎЗАРО МУТАНОСИБЛИГИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10), 1226-1235.

25. Ж. С. Раматов, & М. Ҳасанов (2022). ШАХС ДИНИЙ ДУНЁҚАРАШИНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА ИЛМНИНГ АҲАМИЯТИ. Academic research in educational sciences, 3 (7), 35-39.

26. Ф. А. Кушаков, М. Н. Ҳасанов, Р. Ў. Баратов, Ж. С. Раматов, & С. Ҳ. Султанов (2022). ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ ВА СЎЗ ЭРКИНЛИГИ. Academic research in educational sciences, 3 (10), 803-810.

27. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Кушаков, Файзулла Абдуллаевич, Валиев, Л.А., & Ҳасанов, М.Н. (2022). ТРАНСПОРТ ТИЗИМИ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИ МИСОЛИДА). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (9), 606-612.
28. Ж. С. Раматов, М. Ҳасанов, & Лочин Азаматович Валиев (2022). АУРОБИНДО ГХОШ ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ ФАЛСАФИЙ МЕЪРОСИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (6), 1161-1169.
- 29.. М.Н.Ҳасанов, А.А.Азимбаев, Ҳалилов Ў., & Каримов Б. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ШАХС МАҶНАВИЙ КАМОЛОТИГА ДОИР ҚАРАШЛАРИ . *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 4(3), 147–153. Retrieved from <http://www.wsjournal.com/index.php/new/article/view/629>
30. Ж. С. Раматов, & М. Ҳасанов (2022). МАФКУРАВИЙ ТАҲДИДЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА АХЛОҚИЙ ТАРБИЯНИНГ АҲАМИЯТИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (6), 952-956.
31. Раматов Дж., Умарова Р., Баратов Р., Султанов С. и Ҳасанов М. (2022). МЕТОДЫ И СРЕДСТВА ФОРМИРОВАНИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ СТУДЕНТОВ И МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА. Всемирный научно-исследовательский журнал , 10 (1), 257-262.
32. J. S. Ramatov, Mirshod Numonovich Hasanov, L. A. Valiyev Sharq uyg‘onish, mutafakkirlar davri, siyosiy-huquqiy ta’limotlar (Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniyying Siyosiyhukukiy Qarashida) // Ta’lim fanlaridagi akademik tadqiqotlar. 2022 yil. 6-son. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/shar-uy-onish-davri-mutafakilarinin-siyosiy-uu-iy-talimotlari-abu-nasr-forobiy-abu-ray-on-beruniying-siyosiy-uu- iy-arashlari> (kirish sanasi: 06.01.2023).